

60540100 - Matematika

bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

60540100 — Matematika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

60540100 - Matematika - ilm-fan va texnika sohasidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u fanning turli tarmoqlarida matematikani qo‘llashning talablariga va amaliy faoliyatning turli sohalariga matematik usullarining kirib borishini o‘rganish, soha istiqbolini belgilash, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining bilim vositalari, usullari va uslublari majmuasini o‘z ichiga oladi, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasbiy ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida maxsus fanlardan dars berish bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlariniig obyektlari:

- matematik modellashtirish va kompyuter texnologiyalari qo‘llaniladigan turli sohalarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;
- jarayonlar va ob’ektlarni matematik modellashtirish va dasturiy ta’minlash orqali turli masalalarni yechish;
- fan, texnika, iqtisodiyot va boshqaruv sohasidagi turli masalalarni yechishning samarali metodlarini ishlab chiqish;
- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimining ta’lim muassasalarida sohaga oid fanlarni o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.